

Yapon olimlari dengizda bir soat ichida eriydigan plastik ishlab chiqarishdi

// 17.06.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yapon-olimlari-dengizda-bir-soat-ichida-eriydigan-plastik-is>



Yapon olimlari dengiz suvida bir necha soat ichida hech qanday qoldiqsiz eriydigan innovatsion plastikni yaratishdi.

Loyiha RIKEN ilmiy-tadqiqot markazi va Tokio universiteti tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqildi. Ularning ta'kidlashicha, ishlanma okeanlarning ifloslanishiga qarshi haqiqiy yutuq.

Tokio yaqinidagi Vako shahridagi laboratoriyada plastikning bir bo'lagi bir soat yengil aralashtirishdan so'ng suvda to'liq erigani namoyish etildi. Hech qanday iz yoki chiqindilar qolmadi. An'anaviy bioparchalanuvchi plastiklardan farqli ravishda, ushbu material deyarli darhol parchalanadi va o'zidan mikroplastik qoldirmaydi. Erish qobiliyatiga qaramasdan, plastik neftdan olingan oddiy analoglar bilan taqqoslaganda yetarli darajada mustahkam. U toksik emas, yonmaydi, parchalanish jarayonida karbonad angidrid chiqarmaydi va to'liq ravishda dengizdagi bakteriyalar tomonidan qayta ishlanadi.

Bundan tashqari, plastik faqat okean suvida emas, balki tuz bor bo'lgan tuproqda ham parchalanadi. Besh santimetrlik bo'lak quruqlikda taxminan 200 soatda parchalanib ketadi.

Hozircha ushbu material ommaviy ishlab chiqarishga kiritilmagan bo'lsa-da, qadoqlash sohasidagi kompaniyalar unga qiziqish bildirmoqda.

Takudzo Ayda rahbarligidagi tadqiqot guruhi plastikning chidamliligini saqlash uchun maxsus qoplamani yaratish ustida ish olib bormoqda, shu tariqa u chiqindilarni yo'q qilishgacha mustahkam bo'lib, keyin esa osonlikcha erishi mumkin bo'ladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati